



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI

QISQACHA TAHLIL: TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA SO'NGGI 5 YILDAGI IMKONIYATLAR

Toshkent 2021

Qisqacha tahlil: Tadbirkorlikni rivojlantirish va so‘nggi 5 yildagi imkoniyatlar

So‘nggi **5 yilda** Respublikamizda biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlikni amalga oshirishda ortiqcha to‘siqlar va tartibotlarni bekor qilish, tadbirkorlik subyektlarining mulk huquqlarini kuchaytirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda biznes infratuzilmasini takomillashtirish sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, iqtisodiyotni, shu jumladan, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan **1 419 ta Farmon va qarorlar** bilan imtiyoz va preferensiyalar berildi. Xususan, Koronavirus pandemiyasi davrida tadbirkorlik subyektlariga imtiyoz va preferensiyalar berish maqsadida **17 ta Farmon va qarorlar** imzolanib, ularga asosan tadbirkorlarga Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi Jamg‘arma tomonidan ilgari olingan kreditlar bo‘yicha foiz to‘lovlarini to‘lab berish, soliq, kredit to‘lovlari va boshqa bir qator imtiyozlar berildi.

Mazkur Farmonlarga asosan quyidagi imtiyozlar berildi:

- YATTLarning Ijtimoiy **soliq bazasi 50 foizga kamaytirildi** (2020-yil 1-apreldan 1-oktabrga qadar);
- tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitorlikka **moliyaviy jarima qo‘llash bekor qilindi**;
- **turoperatorlar, turagentlar va turizm** sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi subyektlar **mol-mulk va yer solig‘i** to‘lashdan ozod etildi; (2020-yilning 1-apreldan 31-dekabrga qadar)
- turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi subyektlar uchun ijtimoiy soliq **12 foizdan 1 foizga kamaytirildi**; (2020-yilning 1-apreldan 31-dekabrga qadar)
- foydalanilmayotgan maydonlarga oshirilgan mol-mulk va yer solig‘ini qo‘llash to‘xtatildi; (2020-yilning 1-apreldan 31-dekabrga qadar)
- karantin vaqtida faoliyatini to‘xtatgan YATTLarga qat‘iy belgilangan soliq va ijtimoiy soliqni hisoblash to‘xtatildi;
- 2020-yil 1-iyunidan 2021-yil 31-dekabrga qadar **foyda solig‘i stavkasi belgilangan stavkaga nisbatan 50 foizga kamaytirildi**;
- 2020-yil 1-maydan 1-oktabrgacha bo‘lgan muddatda tadbirkorlik subyektlari tomonidan olingan kreditlar foiz to‘lovlarining bir qismi **Agentlik huzuridagi jamg‘arma tomonidan** to‘lab berildi.

Shuningdek, boshqa turli imtiyozlar berilishi natijasida mazkur Farmonlar asosida tadbirkorlik subyektlariga **10,1 trln so‘mlik soliq imtiyozlari ko‘rsatildi**.

Bundan tashqari, hukumatimiz tomonidan aholi bandiligini ta'minlash hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator subsidiya mablag'lari ajratib kelinmoqda.

Jumladan, quduqlar burg'ilash (qazish), sug'orish vositalari xarid qilish, yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan subsidiyalar ajratilmoqda.

Shuningdek, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi PQ-4709 son qaroriga asosan *2021-yil 1-yanvaridan boshlab 2023-yil 1-yanvariga qadar chetdan olib kirilayotgan urug'lar, ko'chatlar va payvandtaglar, mineral o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari, zamonaviy energiya tejovchi issiqxonalar va ularning butlovchi qismlari, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlari hamda ularning butlovchi qismlari bojxona bojidan ozod etildi.*

Respublikamizda so'nggi yillarda **davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimi yaratildi**, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan – korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish, elektr tizimi tarmog'iga ulanish, mulkni ro'yxatdan o'tkazish tartibotlarini davlat xizmatlari va boshqa bir qator xizmatlar ko'rsatish orqali amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

2018-yilgacha bo'lgan davrda davlat xizmat markazlari orqali tadbirkorlik subyektlariga faqat **37 turdagi** davlat xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu xizmatlar soni **154 taga** yetkazildi, shu jumladan, **26 tasi** tadbirkorlik faoliyatiga doir hisoblanadi.

Shuningdek, respublikamizning har bir tuman va shaharida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari hamda Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirishga, ishbilarmonlik muhitiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bo'lgan **qariyb 2 500 ta** tegishli Qonun va normativ-huquqiy hujjatlarda takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiyotimizni rivojlantirishda eng asosiy omil sifatida qaralmoqda. Bu borada **oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini tadbirkorlikka jalb qilish** hamda bu orqali aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor yo'nalishlari** bo'yicha **Harakatlar Strategiyasida** iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirilishi belgilandi.

O'tgan davrda **qariyb 37 mingta** tadbirkorlik subyektlarining **57 trln so'mlik** kreditlariga **12 trln so'mlik** moliyaviy yordamlar ko'rsatildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida **884 mingta** loyihalarga **20,5 trln so'm** kreditlar ajratilgan.

2017-2020-yillarda O'zbekistonda biznes muhitining tegishli yo'nalishlaridagi **15 ta muhim islohotlar** (*minoritar investorlarni himoya qilish, soliqlar to'lash, xalqaro savdo, kontraktlar ijrosini ta'minlash, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish, qurilish uchun ruxsatnomalar olish, elektr ta'minotiga ulanish*) **Jahon banki tomonidan tan olindi.**

Natijada Jahon bankining hisobotida O'zbekiston **2020-yilda "Top-20" islohotchi mamlakatlar qatoridan o'rin oldi.**

100 nafar mahalliy va xorijiy ekspertlar tomonidan ovoz berish yo'li bilan aniqlangan Prezidentimizning tashabbusi bilan amalga oshirilgan **15 ta muhim islohotlarning** ichida **Tadbirkorlik muhiti yaxshilanishi, xususan, biznesni ro'yxatdan o'tkazish va uni yuritish** bo'yicha jarayonlar soddalashtirilishi islohoti ham e'tirof etildi.

O'zbekistonda biznes yuritish muhitini yaxshilash, tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasida **2021-yilga kelib 2016-yilga nisbatan 479 ming yoki qariyb 2 marta** ko'p tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritib kelmoqda.

Respublikamizda deyarli **10 mln aholi** (*iqtisodiy faol aholining 67,2 foizi*) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelmoqda.

Kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining **qariyb 55 foizini**, sanoat mahsulotlari hajmining **uchdan birini**, qishloq xo'jaligi mahsulotining **98 foizini**, investitsiyalarning yarmini tashkil etadi. Aholi bandligining **74 foizi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.**

Respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishda so'ngi **5 yil ichida** keng salmoqli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar natijasini statistik raqamlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, **2017-yil yakuniga** ko'ra jami ro'yxatdan o'tgan **tadbirkorlik subyektlari 226 mingtani** tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar

2021-yilga kelib 2 barobar o'sdi. Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni esa **3 barobarga yetkazildi.**

O'tgan davr davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sdi. Jumladan, sanoat sohasida **2017-yilga nisbatan 2 baravarga, qurilish sohasida 3 barobarga ko'paydi.**

Bundan tashqari savdo, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hajmlari **2 barobarga ko'paydi.**

Yuqorida qayd etilgan islohotlarning bevosita ta'siri bilan hududlarda yangidan tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarida yiliga o'rtacha 200 ming nafardan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bu esa aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromad 2020-yilda 2017-yilga nisbatan qariyb 2 barobarga oshib, 10,4 mln so'mni tashkil qilganligi, shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM qiymatining **so'nggi 4 yil davomida qariyb 2 barobarga o'sganligida** biznes muhitining yaxshilanishi nafaqat iqtisodiyot balki aholi turmush farovonligini mustahkamlashda ham naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko'rish mumkin.

Islohotlar davomi sifatida aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish hamda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi asosiy yo'nalishlari amaliyotga joriy etildi:

aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qiziqishi va manfaatdorligini oshirish, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik qilish orqali o'zi va oila a'zolarini yashash tarzini yaxshilash bo'yicha motivatsiya beriladi;

Nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta'lim tashkilotlari keng jalb qilinib, aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimi joriy etildi;

kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlari davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi;

o'qishni muvaffaqiyatli tamomlab, ularning maxsus sertifikatini olgan shaxslarga o'z biznesini tashkil etish uchun **33 mln so'mgacha** garovsiz hamda uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, garov, jamg'arma kafilligi va boshqa ta'minot turlari asosida **225 mln so'mgacha** miqdorda mikrokreditlar ajratiladi.

Bunda, mikrokreditlar **3 yil** muddatgacha **6 oygacha** imtiyozli davr bilan, yoshlarning biznes loyihalariga esa kreditlarni qaytarish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, **7 yilgacha** muddatga, **3 yilgacha imtiyozli** davr bilan **Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratiladi (hozirgi kunda 14 foiz).**

Bunga, **Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 100 mln AQSH dollari** ekvivalentida mablag' ajratilgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilishi belgilangan. Xususan:

Birinchidan, hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish **"drayverlari"** aniqlanib, tadbirkorlik majmualari (kooperatsiya) tashkil etish va loyihalarni joylashtirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

Bunda, Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi jamg'arma tomonidan **8,3 trln so'mlik** moliyaviy yordam ko'rsatish tadbirlari amalga oshiriladi.

Tanlangan hududlarda kooperatsiyalar tashkil etiladi va aholi ish bilan ta'minlanadi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan aholiga, ayniqsa, yoshlar va ayollarga motivatsiya berish, o'qitish va ularning loyihalariga kredit ajratilishini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi.

Bunda, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar tadbirkorlik kurslarida o'qitiladi, aholiga, ayniqsa, yoshlar va ayollarga imtiyozli kreditlar ajratiladi. Aholi bandligi ta'minlanadi, aholiga doimiy daromad manbai yaratiladi.

Uchinchidan, **"Tadbirkorlik Kodeksi"** loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq **5 mingga yaqin Qonun va Qonunosti hujjatlar** takomillashtiriladi;

ayrim faoliyat turlariga ruxsat berish tartib-taomillari muvofiqlashtiriladi.

To'rtinchidan, xalqaro hamkorlikda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qo'llab-quvvatlash loyihalari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yevropa investitsiya bankining **200 mln dollar** mablag'i mikro, kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlashga jalb qilinadi.

Osiyo taraqqiyot banki tomonidan *"O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash"* dasturi doirasida **150 mln AQSH dollari** ajratiladi;

Beshinchidan, **"Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida"**gi Kodeks ishlab chiqiladi, bu bilan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish o'rinlari bilan ta'minlash, ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yoxud boshqa ijtimoiy maqsadlarni ko'zlagan hamda belgilangan tartibda ijtimoiy korxonalar reyestriga kiritilgan tadbirkorlik subyektlari qo'llab-quvvatlanadi;

Oltinchidan, *"Tadbirkorlik va professional faoliyat subyektlarining o'z-o'zini tartibga solishi to'g'risida"*gi Qonuni ishlab chiqilmoqda;

Yettinchidan, hududlarda tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash borasida **“Lider”** tadbirkorlar ishtirokida gidroponika usulida ixcham issiqxonalar quriladi (Buxoro viloyatida **“Buxara-Varnet”**, Andijon viloyatida **“NETHOUSE”** korxonalari);

Sakkizinchidan, hududlarda kooperatsiya usulida oziq ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha kooperatsiyalar tashkil etilmoqda (*sutni qayta ishlash, bog'dorchilik, kartoshka yetishtirish*).